

IJTIMOY TA'MINOTNING AHAMIYATI: O'ZBEKISTON VA XORIJIY DAVLATLAR KONSTITUTSIYALARIDA

Ziyadullayev Maxmudjon Djurakulovich

Toshkent shahridagi “Sankt-Peterburg davlat Universiteti”

filioli direktori, yuridik fanlar doktori (DSc), dotsenti,

E-mail: maxmud1970@rambler.ru

Annotatsiya: ushbu maqolada ijtimoiy ta'minot masalalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kafolatlanganligi, fuqarolarning ijtimoiy muxofazasi bo'yicha davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohatlar, respublikamizda belgilangan minimal iste'mol xarajatlari va boshqa davlatlarda minimal iste'mol savatchalarini belgilash asoslari bayon qilingan.

Shuningdek, xorijiy davlatlarning Konstitutsiyalarida ham ijtimoiy ta'minotning belgilanganligi va minimal iste'mol xarajatlarning belgilanish asoslari to'g'risida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: minimal iste'mol xarajatlari, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy muxofaza, pensiya, aholining kam ta'minlangan qatlamlari, nogiron shaxslar.

Inson manfaatlari eng oliy qadriyat sifatida e'zozlanayotgan, fuqarolar uchun hech kimdan kam bo'lmagan farovon va to'kis hayot sharoitlarini barpo qilish o'zining oliy maqsadi ekanini butun jahonga namoyon qilayotgan bizning davlatimiz uchun aholini, birinchi navbatda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj aholi qatlamlarini ishonchli ijtimoiy ta'minlash vositalarini yaratish, ularni muntazam takomillashtirib borish uchun kurashish ustuvor vazifa qilib belgilangan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning inson manfaatlari tomon yo'naltirilganligi, eng avvalo fuqarolarni ijtimoiy ta'minot olishga bo'lgan huquqlari Konstitutsiyamizda kafolatlanishi bilan birga ulardan amalda to'liq foydalanish uchun zarur huquqiy vositalar barpo etilganligi, moddiy va ijtimoiy yordamlar olishning tashkiliy jihatdan ta'minlanganligida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Tezlik bilan rivojlanib, o'zgarib borayotgan murakkab jamiyatda O'zbekistonning asosiy strategik yo'nalishlaridan biri, bu ijtimoiy muxofazadir. Ijtimoiy himoya Konstitutsiya bilan kafolatlanib qo'yilgan.

Darhaqiqat, Konstitutsiya davlatning oliy qonunidir. Ushbu normativ-huquqiy hujjat hukumatning vakolatlari va funksiyalari bilan bog'liq qoidalarni ham belgilaydi. Shuningdek, u davlatning asosiy xususiyatlarini, fuqarolar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish asoslarini ham belgilab beradi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiyasi 30 aprel 2023-yilda qabul qilindi [1] va unda davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya

va qonunning ustunligi, inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, fuqarolik, siyosiy huquqlar, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari, inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari, burchlari to‘liq belgilab berildi. Ayniqsa shaxsning ta‘lim, mehnat masalalari, ijtimoiy ta‘minot huquqlari Konstitutsiyada keng va batafsil belgilab qo‘yilgan.

Jumladan, Konstitutsiyaning 46-moddasida ijtimoiy masalalar quyidagicha, «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek boshqa hollarda ijtimoiy ta‘minot olish huquqiga ega» [2] deb belgilangan. Aynan ushbu qoida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi»ning 25-moddasidan implementatsiya qilingan.

Davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti yoki Xalqaro Mehnat Tashkilotining xalqaro hujjatlarini ratifikatsiya qilishi, unga amal qilishlari va o‘z milliy qonunchiliklariga implementatsiya qilishlari mumkin.

Darhaqiqat, fuqarolarning ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlarini moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlashni davlat o‘zining moliyaviy instituti orqali amalga oshiradi. Bugungi kunda davlatimizning bosh qomusi hisoblangan Konstitutsiyamizda belgilangan ijtimoiy himoya masalalari amalda ijrosi keng qamrovli ta‘minlanmoqda.

Jumladan, keksalarni munosib pensiyalar bilan ta‘minlanishi, o‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga muntazam ijtimoiy yordamlar ko‘rsatilishi, bepul turli xildagi oziq-ovqatlar mahsulotlari bilan ta‘minlanishi, imkoniyati cheklangan shaxslarga zarur ortopedik mahsulotlar, sanatoriya-davolanish muassasalariga bepul yo‘llanmalar taqdim etilishi, kam ta‘minlangan shaxslarga davlat tomonidan ijtimoiy nafaqalar tayinlanishi, ishsizlikdan himoya qilish maqsadida moddiy yordam va nafaqalar berilishi bularning barchasi xalqaro standartlarga mos ravishda amalga oshirilib kelmoqda.

Ijtimoiy ta‘minot huquqi to‘g‘risida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Xalqaro Mehnat Tashkilotining xalqaro huquqiy hujjatlarida ham keng to‘xtalib o‘tilgan. Buning isboti sifatida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1966 yilda qabul qilingan, «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro Paktda» [3] da ham aynan ijtimoiy muhofaza to‘g‘risida masalalar bilvosita aks etgan va ushbu Paktda quyidagicha belgilangan: «...a‘zo davlatlar, ayni vaqtda o‘z erki bilan kelishuvlarga asoslangan bu sohadagi xalqaro hamkorlikning muhim ahamiyatini e‘tirof etadilar». Bundan tashqari yana ijtimoiy himoyaga oid quyidagi xalqaro hujjatlarni misol tariqasida keltirib o‘tsak o‘rinlidir, «Nogironlarning huquqlari haqida Deklaratsiya», (BMT tomonidan 1975-yilda qabul qilingan), «Qariyalar haq-huquqlari haqida Deklaratsiya» (1992-y), mazkur xalqaro hujjatlarga mos ravishda yil nomlari ham e‘lon qilingan. Misol, 1980-yil Xalqaro nogironlar yili, 1993-yil esa «Xalqaro qariyalar yili» deb e‘lon qilingan.

Ma'lumki, respublikamiz Xalqaro Mehnat Tashkilotida 1993-yildan a'zo sifatida ishtirok eta boshladi. XMTning 102-sonli «Ijtimoiy sug'urtaning minimal me'yorlari haqida»gi, «Kasallik bo'yicha tibbiy yordam va nafaqalar haqida»gi 130-sonli (1972-yil), 1983-yildagi «Nogironlarning kasbiy rehabilitatsiyasi va ish bilan ta'minlash haqida»gi 99-sonli Konvensiyalari ham ijtimoiy muhofaza masalalariga oid hisoblanadi.

Ijtimoiy himoya masalalari bugungi kunda dolzarb bo'lganligi uchun ko'pgina davlatlar ham o'z konstitutsiyalarida ushbu masalani alohida belgilab qo'ygan.

Jumladan, Yaponiya Konstitutsiyasida, «... aholining minimal moddiy va ijtimoiy huquqlari belgilanib, ayni vaqtda ijtimoiy ta'minotni yanada yuksaltirish va rivojlantirish majburiyatini davlat zimmasiga yuklaydi».

Italiya Konstitutsiyasining 36-moddasida: «...mehnatga layoqatsiz va tirikchilik uchun yetarlicha mablag'ga ega bo'lmagan shaxsni davlat qo'llab-quvvatlashi va undan yordam olish huquqiga ega ekanligi mustahkamlab qo'yilgan».

Germaniya, AQSh, Fransiya Konstitutsiyalarida aynan shunday normalar bo'lmasada, tegishli ijtimoiy huquqlarni himoya qiluvchi qonunlarda o'z aksini topgan. Germaniyaning (Bavariya, Dordmun, Bremen va h.k.) hududiy qonunchiliklarida mustahkamlab qo'yilgan. Skandinaviya mamlakatlarining ham konstitutsiyasida aynan ijtimoiy siyosat bo'yicha masalalar aniq belgilangan.

Shuningdek, ijtimoiy himoya masalalarida Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 7-moddasida quyidagilar: «Rossiya Federatsiyasida mehnat va insonlar salomatligini muhofaza qilinadi, kafolatlangan minimal miqdordagi ish haqi bilan ta'minlaydi, oila, onalik, otalik va bolalik, nogironlar va keksa fuqarolar uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantiradi, davlat pensiyalari, nafaqalari va ijtimoiy himoyaning boshqa kafolatlarini belgilaydi» [4] deb bayon qilingan bo'lsa, Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasida: «Qozog'iston Respublikasi fuqarosi eng kam ish haqi va pensiya, yoshga qarab ijtimoiy ta'minot, kasallik, nogironlik, boquvchisini yo'qotish va boshqa qonuniy asoslar bo'yicha kafolatlanishi belgilab qo'yilgan».

Yana bir muhim jihati Konstitutsiyaning 46-moddasining ikkinchi qismida, «qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emas» deb belgilanganligi.

Ushbu norma Konstitutsiya 1992-yil qabul qilingan bo'lsada, qariyb 30 yil mobaynida tirikchilik uchun zarur eng miqdor mavhumligicha qolmoqda edi.

Minimal oziq-ovqat miqdorlarini belgilanishi, kambag'allik darajasi kabi iboralar, «O'zbekiston tarixida ilk bor kambag'allik masalasi 2020-yilning 24-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga

Murojaatnomasida kun tartibiga olib chiqilib, mazkur mavzu ijtimoiy, iqtisodiy siyosatning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Kambag‘allikning o‘zi nima? «...kambag‘allik bu – ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Jahon banki tomonidan berilgan ta‘rifga ko‘ra, kambag‘al bu – shaxs yoki oilaning iqtisodiy holatini ifodasidir, bunda ular minimal zaruriy ehtiyojlarini qondirishga imkoni yo‘qligi, muhtojlik holati hamda yashashga sharoitlari etishmasligini anglatadi.

Ma‘lumki ko‘p davlatlarda ayniqsa Mustaqil Hamdo‘stlik Davlatlariga kiruvchi respublikalarda iste‘mol savatchasi, yashash minimumi tushunchalari mavjud, ammo respublikamizda iste‘mol savatchasi o‘rniga iste‘mol xarajati tushunchasi qabul qilindi. Ushbu iboralarning farqi to‘g‘risida to‘xtalamiz.

Bizningcha, «iste‘mol savatchasi – inson salomatligi va umri mobaynida hayotiy faoliyatini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan iste‘mol tovarlari va xizmatlar to‘plami. Iste‘mol savatining ro‘yxati va tarkibi jami aholi uchun, shuningdek, alohida ijtimoiy-demografik guruhlar uchun aniqlanadi.

Yashash minimumi – kam ta‘minlangan aholining byudjet tuzilmasiga to‘g‘ri keladigan iste‘mol savatining xarajatlar qiymatini ifodalaydigan ijtimoiy standart bo‘lib, o‘z ichiga soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni oladi. Minimal iste‘mol xarajati – insonlarning sog‘lom hayot kechirishlari uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlarining minimal energiyaviy qiymati va nooziq-ovqat hamda xizmatlar uchun xarajatlarning hisoblangan qiymati yig‘indisi bo‘lib, uy xo‘jaliklarining real iste‘mol xarajatlari tarkibini o‘rganish asosida aniqlanadi.

Kam ta‘minlanganlik darajasi har ***bir davlatda o‘z aholisining umumiy ijtimoiy – iqtisodiy holatidan kelib chiqib baholanadi***».

MDH davlatlarida: «kam ta‘minlanganlik darajasi umumiy aholiga nisbatan Ozarbayjonda 5,1%, Armanistonda 23,5%, Belarus Respublikasida 5,6%, Tojikistonda 27,4%, Qozog‘istonda 4,3%, Qirg‘izistonda 22,4%, Moldovada 9,6%, Rossiya Federatsiyasida 12,6% va Ukrainada 1,3%», bo‘lsa «Yevropa Ittifoqi davlatlarida kam ta‘minlanganlik darajasi Germaniyada 16,0%, Ispaniyada 21,5%, Fransiyada 13,4%, Italiyada 20,3%, Polshada 14,8%, Slovakiyada 12,2%», «Amerika Qo‘shma Shtatlarida kam ta‘minlanganlik darajasi 11,8%ni» tashkil etgan.

O‘rganishlar natijasida kambag‘allik darajasini aniqlash uchun oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlardan iborat bo‘lgan hamda bir kishi uchun zarur bo‘lgan minimal iste‘mol xarajatlari qiymati tushunchasi kiritildi. Mazkur usulning o‘ziga xosligi aholi real iste‘moli tarkibi va xarakteridan (consumption behavior) kelib chiqadi.

2021-yilning iyunidan respublikamizda minimal iste‘mol xarajatlar qiymati 440 ming so‘m tashkil etilishi e‘lon qilindi va ushbu qiymat bosqichma – bosqich qayta

ko‘rib chiqilishi belgilandi. Bugungi kunda bu miqdor har oyda kishi boshiga 568 ming so‘mni tashkil etadi.

Xulosa o‘rnida, mazkur minimal iste‘mol xarajatlarining rasmiy belgilanishi aholining ijtimoiy hayot tarziga, xususan nogiron shaxslarga quyidagi imkoniyatlarni beradi.

Demak minimal iste‘mol xarajatlarini belgilanishi, aholining ayniqsa nogironligi bor shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga, yashash minimumi uchun yetarli bo‘lmagan pensiya va nafaqa oluvchilarning xususan nogiron shaxslarning konstitutsiya bilan belgilab qo‘yilgan huquqlarini ro‘yobga chiqishiga yana bir asos bo‘lib xizmat qiladi. Bularning barchasi respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning aholi turmush darajasini oshirishga, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo‘llab-quvvatlashga hamda aholi farovonligi va uning to‘la-to‘kis hayot kechirishiga zamin yaratish maqsadlariga qaratilganligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/docs/6445145#6445170>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
3. <https://lex.uz/docs/2686000>.
4. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi. Moskva. 1993-yil.
5. Махмуджон Зиядуллаев (2021). Право на социальное обеспечение в Узбекистане и радикальные реформы, проведенные в пенсионном секторе в 2017-2021 годах. Общество и инновации, 2 (8/S), 121-127. doi: 10.47689/2181-1415-vol2-iss8/S-pp121-127
6. Зиядуллаев, М. (2021). Право на социальное обеспечение в Узбекистане и радикальные реформы, проведенные в пенсионном секторе в 2017-2021 годах. Общество и инновации, 2(8/S), 121–127. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss8/S-pp121-127>